Laboratoriyada ishlash qoidalari va texnika xavfsizligi

Mikrobiologik tadqiqotlar maxsus jihozlangan mikrobiologik laboratoriyalarda olib boriladi. Ko‘pincha mikrobiologik tahlillar steril sharoitlarda o‘tkaziladi. Bunga sabab o‘rganilayotgan materialning boshqa muhitdagi begona mikroorganizmlar bilan zararlanmasligi, atrof–muhitni va tadqiqotchilarni muhofaza qilishdir.

Mikrobiologik laboratoriya tarkibiga tadqiqotlar xonasi, ozuqa muhitlari tayyorlash, reaktivlar tayyorlash, laboratoriyada ishlatiladigan idishlarni yuvish va sterilizatsiya qilish uchun maxsus xonalar kiradi. Sterillangan sharoitda bajariladigan ishlar uchun bitta xonada laboratoriya stollari, reaktivlar, idishlar va apparatura saqlash uchun maxsus shikaflar qo‘yilgan oynaband bokslar tashkil etiladi. Laboratoriyaning asosiy jihozlariga mikroskop, mikroorganizmni o‘stirish uchun termostat, avtoklav, sterilizatsiya qilish uchun asbob – anjomlar, sovutgich kiradi. Laboratoriya xonasi har kuni ehtiyoj uchun ozuqa muhitlari, bo‘yoqlar va boshqa laboratoriya anjomlari bilan ta’minlanishi zarur.

Talabalarni mikrobiologik laboratoriyada ishlash qoidalari

Har bir talabaning laboratoriyada o‘z ish joyi bo‘lishi kerak. Ish joyi mashg‘ulot uchun mikroskop, uning yoritkichi, probirkalar uchun shtativlar, turli bo‘yoqlar, reaktivlvr, suv, preparatlarni bo‘yash uchun vannalar, preparat tayyorlash uchun oyna, bakteriologik sirtmoq hamda dezinfeksiyalovchi eritma solingan idishlar bilan ta’minlangan bo‘lishi shart.

Mikrobiologik laboratoriyada quydagilar ta’qiqlanadi:

1. Laboratoriyaga ustki va bosh kiyim bilan kirish;
2. Laboratoriyada xalatsiz ishlash va u erda bo‘lish;
3. Ovqatlanish, chekish, stollarga begona predmetlar, portfel, sumkalar, bosh kiyimlarni qo‘yish;
4. Laboratoriyada ortiqcha harakatlanish, keskin harakat qilish va bu Bilan o‘rganilayotgan materialni boshqa mikroblar bilan ifloslantirish.

Talabalarni laboratoriyada ishlash paytidagi vazifalari:

1. Navbatchi o‘qituvchidan o‘quv materialni qabul qiladi va talabaga tarqatadi.
2. Mashg‘ulot paytida:

a) mikroskop va boshqa laboratoriya anjomlari bilan ehtiyot bo‘lib ishlash.

b) mashg‘ulot jarayonida uzatilayotgan ob’ekt haqida ma’lumotlarni uzluksiz yozib borish va albomga chizib borish.

v) probirkalar, Petri idishchalariga guruh raqami, ish joyi va sanalarni qayd qilish.

g) mashg‘ulotlar tugagach esa pipetkalar, shpatellar va boshqa asboblarni dezinfeksiyalovchi eritmaga solib, zararsizlantirish. Sirtmoqlarni spirt alangasida kuydirib, zararsizlantirish.

d) o‘quv mashg‘ulotlari tugagach, ish joyini va mikroskoplarni o‘z holiga keltirib qo‘yish, mikroorganizmlar ekilgan probirka va Petri chashkalarini termostatga joylash uchun navbatchiga topshirish va o‘qituvchiga topshirishlari zarur.

Eslatma

Hamma bakteriya va mikroorganizm preraratlari immersiya ob’ektivi orqli ko‘riladi, albomga suratlari chiziladi, tagiga nomi yoziladi. Ish mikroskopini to‘g‘ri va ohistalik bilan shkafga joylashtirish va o‘z ish joyini tartibga solish bilan tugallanadi. Bu qoidalarga mikrobiologiya darslarida doimo amal qilinadi.